O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

HUZURIDAGI AFG‘ONISTON FUQAROLARINI

O‘QITISh TA’LIM MARKAZI

XALQARO ALOQALAR BO‘LIMI

TOMONIDAN 2022-2023 O’QUV YILDA

AMALGA OSHIRGAN ISHLARI HAQIDA

H I S O B O T

TERMIZ-2023

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi xalqaro aloqalar bo‘limi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida

MA’LUMOT

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohatlarning samarasi tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi hamda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan insonlar, birinchi navbatda, rahbar xodimlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi, bu qoidalarga butun jamiyat a’zolarini qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhitni yaratish g‘oyat muhim va dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish hayotiy ehtiyojga aylandi. Bu borada Konstitutsiya va qonun ustuvorligini, davlat organlari qarorlari, mansabdor shaxslarning hatti-harakatlari qonunlarga to‘liq muvofiq bo‘lishini ta’minlash, qonunlar ijrosini samarali tashkil etish, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish, huquqiy axborotni zamonaviy usullar orqali keng ommaga yetkazish, har bir fuqaro va mansabdor shaxslarda Konstitutsiya va qonunlarga hurmat hissini shakllantirishdan iboratdir.

Mamlakatimizda yosh avlodni tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, yurtimizning kelajakda jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashi, o‘sib kelayotgan farzandlar salohiyatiga, ularning ma’naviy va jismoniy kamolotiga bog‘liq. Bu borada davlat va jamiyat yoshlarning yuksak ma’naviyatli, bilimli va jismoniy sog‘lom bo‘lib shakllanishlari uchun keng chora-tadbirlar majmuini amalga oshirib kelmoqda. Yoshlar tarbiyasi tizimida, ayniqsa, ularning ma’naviy, huquqiy va g‘oyaviy tarbiyasi o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Ayniqsa, qo‘shni mamlakatlar bilan ijtimoiy sheriklik rishtalari mustahkamlanmoqda. Insonlarning ijtimoiy ahvoli yaxshilanib, jamiyat taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanish sur’ati misli

ko‘rilmagan darajaga yetdi. Bunday har bir sohadagi tub yangilanishlar yurtimizda amalga oshirilayotgan muhim islohotlar natijasidir. Bu borada, Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan hamda hayotga izchillik bilan tatbiq qilinayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi eng muhim dastur bo‘lib xizmat qilmoqda.

Markazda 2022-2023 o’quv yilda jahonning yetakchi mamlakatlar va Afg‘onistondan bir guruh mas’ul rahbarlar hamda ommaviy axborot vositalari tashrif buyurdilar

30.09.2022. Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta'lim markaziga Germaniyaning “GIZ” tashkilotidan Dr.Helen Prytherch, Farida Nurmabetova hamda Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi vakillari tashrif buyurishdi.

Ushbu tashrifdan asosiy maqsad, Surxondaryo viloyatida simulyatsion markaz qurilishi bo‘yicha muzokaralarning 2-bosqichi olib borishdir.





Mehmonlar dastlab markaz faoliyati bilan tanishdilar.

Shuningdek, tashrif davomida markaz bazasida "GIZ" tashkiloti homiyligida qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil etish va markaz moddiy texnik bazasini yaxshilash borasida muzokaralar olib borildi.

BMTTD, UNECE, Birlashgan Millatlar Tashkilotining QBOK boshqarmasi (UNHCR) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi hamkorligida “O'zbekiston Respublikasi "Yashil Makon’’ tashabbusini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bosh rejalashtirish va innovatsion moliyaviy yechimlar" loyihasi doirasida **500** ming AQSh $ lik ishlar amalga oshirildi.

Loyiha doirasida Surxondaryo viloyatining 4 ta tumanida jumladan Termiz shahrida 680 dona Termiz tumanida 1670 dona Sherabodda 3250 dona va Jarqo’rg’on tumanida 2512 dona ortiq mevali va manzari daraxtlar ekildi.

Shuningdek Jarqo’rg’on tumani “Yangi O’zbekiston” massivi hududida loyiha doirasida 287000 saksaul ko’chati ekildi va 500 kilogram saksaul urug’i sepildi.

“O'zbekiston Respublikasi "Yashil Makon’’ tashabbusini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bosh rejalashtirish va innovatsion moliyaviy yechimlar" loyihasi doirasida ekish jaronida 750 nafar fuqaro jalb qilindi.Shundan 415 nafar Afg’oniston fuqarolari, 335 nafar mahalliy aholi vakillari qatnashdi.

Markazga “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida barcha agregatlari bilan birga zamonaviy mini traktor texnikasi yetkazib berildi.

Shuningdek Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazida loyihani faoliyatini samarali olib borish uchun lohiya mablag’lari hisobidan ofis mebillari bilan jihozlangan xona ochildi.









30.11.2022.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Afg‘oniston bo‘yicha maxsus vakili Ismatilla Irgashev, BMTning Afg‘oniston bo‘yicha maxsus vakili va Afg‘onistonga yordam ko‘rsatish missiyasi rahbari Roza Otunbaeva hamda

BMTning mamlakatimizdagi doimiy koordinatori Munir Mamedzade boshchiligidagi delegatsiya Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdi.

Tashrif davomida mehmonlar dastlab markazda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, afg‘onistonlik tinglovchilar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuv davomida Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Afg‘oniston hukumati va vazirlik idoralari bilan hamkorlikda, ularning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, afg‘onistonlik yoshlarni





tibbiyot, transport-logistika va ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda markazga o‘qishga jalb qilish ishlariga ko‘maklashishlikda amaliy yordam berishlari ta’kidlab o‘tildi.

Shuningdek, mehmonlar yaqinda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tashkil etilgan “O‘zbek tili va adabiyoti” fanidan o‘tkazilgan Xalqaro fan olimpiadasida markazning "O‘zbek tili va adabiyoti" yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Shekibo Samadi fahrli 1-o‘rinni egallaganligi bilan tabriklab, kelgusi o‘qishlariga zafarlar tabriklab o‘tdilar.





“Yashil makon” – Ona tabiatimizni asrashga o‘z hissangizni qo‘shing!





BMTning taraqqiyot dasturi, UNECE, BMT qochqinlar bo‘yicha Oliy komissarligi, Ekologiya davlat qo‘mitasi hamda Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi bilan hamkorlikda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida Surxondaryo viloyatining Termiz shahri va Termiz, Jarqo‘rg‘on, Sherobod tumanlari hududlarida jami 100 gektar maydonda “Yashil makon” – Ona tabiatimizni asrashga o‘z hissangizni qo‘shing!” shiori ostida 290 ming tup saksovul hamda turli manzarali va mevali daraxt ko‘chatlarini ekish ishlari amalga oshirildi.

Tadbirda tumandagi davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markazi xodimlari hamda afg‘onistonlik ko‘ngillilar ishtirok etishdi.

Termiz texnologiya-muxandislik institutda "Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida muhandislik-texnologiya sohasini rivojlantirish istiqbollari"

mavzusida xalqaro talabalar anjumani bo‘lib o‘tdi. Ushbu anjumanda markaz professor-o‘qituvchilari hamda afg‘onistonlik talaba yoshlar o‘zlarining ilmiy ma’ruzalari bilan faol ishtirok etdilar.





26.01.2023. Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markaziga, Yevropa Ittifoqining O’zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrian va BMT Taraqqiyot Dasturining Toshkentdagi vakolatxonasi rahbari Matilda Dimovska, ularning yordamchilari va loyiha menedjerlari, Surxondaryo viloyati xokimining xotin-qizlar masalalari bo’yicha o’rinbosari Z.Xidirova hamda O’zbekiston Respublikasi Tashqi

ishlar vazirligining Termizdagi konsullik rahbari R.Nazarovlar tashrif buyurdilar hamda Markaz rahbariyati bilan uchrashuv o’tkazdilar.

Tashrif davomida, horijiy mehmonlar Markaz bazasida tashkil etilgan “Yevropa ittifoqi xonasi” va “Kovorking markazi”ning rasmiy ochilishi hamda 3 oylik kurslarni tamomlagan 30 nafar (51 nafardan) tinglovchilarga maxsus sertifikatlar topshirish marosimida ishtirok etdilar.

Tashrif yakunida grant doirasida markaz uchun 29 o’rinli zamonaviy rusmdagi avtobus tantanali ravishda topshirildi.





Yevropa Ittifoqi va BMT Taraqqiyot dasturining qo’shma loyihasi asosida o’qigan xorijliklarga haydovchilik guvohnomalarini topshirish marosimi bo’lib o’tdi. Tadbirda ishtirok etgan Yevropa Ittifoqining O’zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrian va BMT Taraqqiyot dasturining O’zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Matilda Dimovska, Surxondaryo viloyati hokimligi vakillari ushbu amaliyot Afg’onistondagi qayta tiklashishlariga ko’rsatilayotgan yordamlardan biri ekanligini, O’zbekistonda yana ko’plab afg’onistonliklarni turli kasblarga tayyorlashishlari davom ettirilishini bildirdilar. Shu o’rinda Sharlotta Adrian o’zbekistonlik mutasaddilarga kelgusida afg’onistonlik ayollarni hamshiralik ishi bo’yicha o’qitish taklifini bildirdi.



02.02.2023. Surxondaryo viloyatida Yevropa ittifoqi ko’magida bolalar masalalari komissiyalari faoliyati rivojlantiriladi.Bugun Termiz tumani hududida joylashgan Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markazida Surxandaryo viloyatida Yevropa ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan hamkorlik loyihasi doirasida viloyat, shahar va tumanlardagi Bolalar masalalari komissiyalari va Bolalarni himoya qilish sho’balari faoliyatlari salohiyatini o’sishiga hissa qo’shish maqsadida amalga oshirilayotgan loyiha doirasida seminar-trening bo’lib o’tdi.Unda YuNICEF vakili Antonia Lyudeke, Bolalar Ombudsmani vakili Diana Isaeva, Bolalar masalalari bo’yicha Milliy Komissiyaning Bolalarni himoya

qilish masalalari sho’basi vakillari Gulchexra Nigmadjanova, Xurshid Asrorov, Sattor Raxmatov, shuningdek, viloyat hokimligi kotibiyat mudiri Shaxodat Ibragimova, tuman hokimining o’rinbosari Sanjar Nuriev hamda tuman Bolalar masalalari komissiyasi a’zolari ishtirok etishdi.Seminar-treningda mutaxassislar tomonidan Bolalar masalalari komissiyalari a’zolarining o’zaro hamkorlikdagi faoliyati, bu borada amalga oshirilishi lozim bo’lgan vazifalar, shuningdek, bolalarni himoya qilish sho’basi faoliyatini rivojlantirish bo’yicha tavsiyalar berildi.Bundan tashqari Yevropa ittifoqi ko’magida amalga oshirilayotgan loyihalar, ularning maqsadlari, kelgusidagi hamkorlik rejalari haqida ham axborotlar berildi.

23.02.20232023 yilning 23 fevral kuni AQShning O’zbekistondagi elchixonasi vakillari David Kierski va Shoira Saidkarimovalar Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga tashrif buyurishdi.AQSH elchixonasi vakillariga markaz rahbariyati bir necha takliflar kiritdi va nafaqat afg’on xalqi balki mahalliy aholi uchun ham foydali bo’lgan ‘’Amerika burchagi’’ nomi ostida xorijiy til kurslari va xalqaro standartlar asosida xorijiy adabiyot va qo’llanmalar jamlangan kutubxona ochish taklifi bildirildilar

Tashrif davomida mehmonlar dastlab markazda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, afg’onistonlik talabalar bilan uchrashuv tashkil etildi.Uchrashuv davomida mehmonlar iqtidorli talabalarimiz tomonidan AQShning nufuzli ilmiy jurnallarida chop etilgan ilmiy maqolalari to’g’risidagi sertifikatlar topshirildi.Shuningdek, markaz rahbariyati bilan o’tkazilgan muzokaralarda markazimiz ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha hozirgi holat va istiqboldagi hamkorlik rejalari muhokama qilindi.





09.03.2023. Afg’oniston muvaqqat hukumati vakillari markazga tashrif buyurdi

Afg’oniston TIV xalqaro aloqalar boshqarmasi boshligi Shuayb Baryalay, boshqarma boshlig’i Naser Axmad Axmadi hamda Afg’onistonning Termiz shahridagi bosh konsuli Muhammad Idris Zarshuylar Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdi. Tashrif davomida markazda yaratilgan sharoyitlar bilan yaqindan tanishib, yuksak baxo berildi.Shuningdek, markaz professor o’qituvchilar va talaba-yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi. Fikr va

mulahazalar bildirildi. Jumladan, mehmonlar o’z fikrlarini davom etib, «Bizning niyatimiz — Afg’onistonda tinchlik va barqarorlik hukm surishini ta’minlash. Bu iqtisodiy taraqqiyot va hamkorlik aloqalarini kengaytirishga albatta ushbu markaz talabalari ya’ni siz aziz yoshlar xizmat qilasiz.



10.03.2023. Xitoy hukumati vakillari markazga tashrif buyurdi

Xitoy Xalq Respublikasi TIVning Afg’oniston bo’yicha maxsus vakili Yue Syaoyun, TIV birinchi sekretari Sun Yuyfen va Sun Penchjou Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markaziga tashrif buyurdi. Tashrif davomida markazda yaratilgan sharoyitlar bilan yaqindan tanishib, yuksak baxo berildi.



16.03.2023 Afg’oniston fuqarolarini o’qitish ta’lim markaziga, BMT Taraqqiyot Dasturining Toshkentdagi vakolatxonasi rahbari Matilda Dimovska, BMTQOK Markaziy Osiyo bo’yicha mintaqaviy vakili Hans Friedrich Schodder, ularning yordamchilari va loyiha menedjerlari hamda O’zbekiston Respublikasi tabiyat resurslari vazirligining vakillari tashrif buyurdi.Tashrif davomida markaz rahbariyati tomonidan Yevropa Ittifoqi va BMT Taraqqiyot Dasturining qo’shma loyihasi asosida tashkil etilgan 1 yillik va 3 oylik kurslaring natijalari hamda "Yashil makon" loyihasi doirasida erishilgan yutuqlar va ushbu loyihalarning ijrosi bo’yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan hisoboti tinglandi.Shuningdek, kelgusi istiqboldagi reja va loyihalar bo’yicha takliflar bildirildi. O’z navbatida, BMT Taraqqiyot Dasturining Toshkentdagi vakolatxonasi rahbari Matilda Dimovska hamda BMTQOK Markaziy Osiyo bo’yicha mintaqaviy vakili Hans Friedrich Schodder ham hamkorlik qilishdan mamnunligini va Afg’oniston fuqarolariga doimiy ravishda yordam berishga tayyor ekanligini bildirdi.



16.03.2023. "Yashil makon" –2023

BMT Taraqqiyot Dasturining Toshkentdagi vakolatxonasi rahbari Matilda Dimovska, BMTQOK Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy vakili Hans Friedrich Schodder, ularning yordamchilari va loyiha menedjerlari hamda O'zbekiston Respublikasi tabiyat resurslari vazirligi vakillari Jarqo'rg'on tumani tashrif buyurdi. BMTning taraqqiyot dasturi, UNHCR, UNECE, Ekologiya davlat qo'mitasi hamda Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi bilan hamkorlikda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Jarqo'rg'on tumani "Yangi O'zbekiston" massivi hududida jami 290 ming tup saksovul va daraxt ko'chatlari ekish uchun ajratilgan yer maydonida olib borilgan amaliy ishlar bilan yaqindan tanishib, ushbu bog'ni ochilish marosimida ishtirok etdi.



29.04.2023. Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markaziga Xitoy Xalq Respublikasidan jurnalist Sino Freeman hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i Zaxriddin To'raev tashrif buyurdi. Tashrif davomida mehmonlar markaz faoliyati bilan yaqindan tanishib, talaba-yoshlar bilan suhbatlashdilar va ushbu markaz faoliyatiga yuqori baho berib, o'zlarining ijobiy fikrlarini bildirdilar.

29.04.2023. Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markaziga O'zbbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi Millatlararo munosabatlar bo'yicha ilmiy amaliy tadqiqotlar markazi rahbari Saodat Davlatova, markazning bosh ilmiy hodimi Ismoil Xo'jaxonov hamda Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi Rahmonov Muhammadjonlar tashrif buyurishdi. Tashrif davomida mehmonlar markaz faoliyati bilan yaqindan tanishib, talaba-yoshlar bilan suhbatlashdilar va ushbu markaz faoliyatiga yuqori baho berib, o'zlarining ijobiy fikrlarini bildirdilar.



26.05.2023. Markazga Yaponiyaning “Xalqaro xamkorlik tashkiloti” (JICA) vakillari tashrif buyurdi Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta‘lim markaziga Yaponiyaning “Xalqaro xamkorlik tashkiloti” (JICA)ning Janubiy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Shimizu Koji va ushbu tashkilotning Afg‘onistondagi vakolatxonasi rahbari maslahatchisi Daizumoto Yukilar tashrif buyurdilar.Tashrif davomida xorijiy mehmonlar markazda yaratilgan sharoitlar bilan to’liq tanishib chiqdi hamda 4-bosqich “O‘zbek tili va adibyot” ta’lim yo‘nalishi talabalari hamda ta’lim muassasasida Yevropa Ittifoqi va BMT TD ning qo‘shma loyihasi doirasida 1 yillik kurslarda tahsil olgan tinglovchilar bilan suhbatlashdilar.

Suhbat jarayonida, Markaz talabalari va tinglovchilar tomonidan xorijiy mehmonlarga o‘qishni magistratura va bakalavr bosqichida davom ettirish istaklari mavjudligini, shu sababli ularni ushbu imkoniyatdan foydalanishga amaliy yordam ko‘rsatish taklifini berdilar.






2023 yilning 2 iyun kuni Markazga BMTning O‘zbekistondagi doimiy koordinatori Konsuelo Vidal Bryus tashrif buyurdi.

Tashrif davomida xorijiy mehmonlar Markazning 4 bosqich “O‘zbek tili va adibyot” yo‘nalishi talabalari hamda ta’lim muassasasida Yevropa Ittifoqi va BMTRDning qo‘shma loyihasi doirasida tahsil olgan tinglovchilar bilan suhbatlashdi.






2023 yil 24 iyun kuni Afg‘oniston fuqarolarini o‘qitish ta’lim markaziga, Hindistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Manish Prabhat, ShHT Mintaqaviy aksilterror tuzilmasi (MATT) maslahatchisi, doimiy vakili Alok Pandey, Lal Bahodur Shastri nomidagi Hindiston madaniyati markazi direktori Sitesh Kumar, yoga o'qituvchisi Sudha Ragavendran, Nigora Ernazarova, Surxondaryo viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari I.Saparov, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi boshlig‘i Sh.Kichkilovlar tashrif buyurdilar.

Tashrif davomida xorijiy mehmonlar Markazning 4 bosqich “O‘zbek tili va adibyot” yo‘nalishi talabalari bilan suhbatlashdi.

Mehmonlar tomonidan berilgan savollarga talabalar tomonidan darslar yaxshi o’tilganligini, professor-o’qtuvchilar tomonidan o`tilgan dars mashg`ulotlaridan mamnunliklarini bildirib o`tdilar. Suhbat jarayonida, Markaz talabalari tomonidan xorijiy mehmonga o‘qishni magistratura bosqichida davom ettirish istaklari mavjudligini, shu sababli ularni ushbu imkoniyatdan foydalanishga amaliy yordam ko‘rsatish taklifini berdilar.

O’z o’rinda Manish Prabhat talabalar tomonidan berilgan takliflar yuzasidan Hindistonning O‘zbekistondagi vakolatxonasiga borganda, tegishli vakillari bilan ushbu masalani muhokama qilishlarini aytib o‘tdilar.







Xalqaro aloqalar bo’lim boshlig’i N.Xo‘jamurodov